

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 9 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 9 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich</i>	
RIVOJLANGAN O'RTA ASRLARDA PIRENEY YARIM OROLIDAGI KORTESLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI .....	10-14
<i>Azizbek Xolliyev</i>	
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYA TOG'-KON SANOATIDA BRITANIYA SARMOYASINING TUTGAN O'RNI .....	15-20
<i>Mahkamov Abdiqayum Mahkamovich</i>	
SUDYALAR OLIY KENGASHINING SUDYALAR KORPUSINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI (TARIXIY TAHLIL) .....	21-25
<i>Eshimov Shaxridin Xujayorovich</i>	
SUD – HUQUQ TIZIMIDAGI TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATI VA MA'NAVIY – MA'RIFIY ISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) .....	26-31
<i>Намазова Умидা Нормурадовна</i>	
ИЛК ЎРТА АСРЛАР СУФДДА НИКОҲ: ШАКЛЛАНИШИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ ВА ХУСУСИЯТЛАРИ .....	32-41
<i>Самадов Искандар Исматович</i>	
ХОРАЗМ ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (XXCP)ДА ЕР-СУВ МАСАЛАСИ .....	42-48
<i>Rustamova Madina Musoqulovna</i>	
SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALARGA QO'SHGAN HISSASI .....	49-56
<i>Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna</i>	
SOVET DAVRIDA KITOБ TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA AMALIYOTLARI... ..	57-64
<i>Tursunov Javlonek Akrom o'g'li</i>	
MUQADDAS QADAMJOLAR. SAMARQAND SHAHRINING TARIXIY TOPONOMIYASINING MUHIM TARKIBIY QISMI .....	65-68

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Tolipova Baxtigul</i>	
MAMLAKAT OZIQ-OVQAT SANOATIGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARING EKONOMETRIK TAHLILI .....	69-77
<i>Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA PUL-KREDIT SIYOSATI KO'RSATKICHLARI TAHLILI ....	78-83
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич, Хасанова Руфина Раисовна</i>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	84-96
<i>Meliyeva Nargiza Eshboyevna</i>	
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA RIVOJLANGAN DAVLATLARING TAJRIBASI ....	97-104

<i>Исраилов Рустам Ибрагимович</i>	
КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	
МАСАЛАЛАРИ .....	105-109
<i>Jumaniyazov Inomjon To'raevich</i>	
APPLICATION OF ESG PRINCIPLES IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN	
INVESTMENT FUNDS .....	110-120
<i>Amonov Navro'xon Saloxiddin o'g'li</i>	
MINTAQAVIY MEHNAT BOZORIDAGI ISHCHI KUCHIGA TALAB VA TAKLIFNI	
ISTIQBOLLASHTIRISH YO'LLARI .....	121-129
<i>Mirxamidova Zahinabonu Mirxamid qizi</i>	
ROBOTLASHTIRISH DAVRIDA MEHNAT BOZORINING O'ZGARISHI: TO'RTINCHI SANOAT	
INQILOBI MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	130-138
<i>Kalbayev Muratbay Aytbaevich</i>	
AYLANMA MABLAG'LARNI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	139-144
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Ernazarova Yorqinoy Ollaberganova</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA KADRLAR XIZMATINI TASHKIL ETISH: ODOB-AXLOQ	
QOIDALARI VA KASBIY MADANIYAT TALABLARIGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH	
MEXANIZMLARI .....	145-155
<i>Ahrorova Shahlo O'rinoiboyevna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNING	
TAKOMILLASHUVI JARAYONI .....	156-161
<i>Рахманов Баҳодир</i>	
АЛИШЕР НАВОЙЙ КОМИЛ ИНСОН КОНСЕПСИЯСИДА СИНЕРГЕТИК	
ФОЯЛAR ИН'ИКОСИ .....	162-170
<i>Нуралиева Насиба Ахмадкуловна</i>	
ЖАДИД МУТАФАККИРЛАРИ ИЖОДИДА ТАРБИЯГА ОИД ҚАРАШЛАРНИНГ ФАЛСАФИЙ	
ТАҲЛИЛИ .....	171-176
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Fayzulloyev Otabek Muhamadovich</i>	
KATTALAR FOLKLORINING TARKIBIY QISMI – BOLALAR FOLKLORI HAQIDA.....	177-184
<i>Токимбетова Гулбахор Абатбаевна</i>	
ЎЗБЕК-ҚОРАҚАЛПОҚ АДАВИЁТШУНОСЛИГИДА ИРФОНИЙ ОБРАЗЛАР .....	185-190
<i>Yusupova Sadokat Aljon qizi</i>	
"BOBURNOMA"NING YAPONIYADA O'RGANILISHI .....	191-197
<i>Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi qizi</i>	
JAHON TILSHUNOSLIGIDA POLISEMIYA HODISASIGA LINGVISTIK YONDASHUV (RUS VA	
INGLIZ TILSHUNOSLIGI MISOLIDA) .....	198-201
<i>Tangriyev Valisher Azamovich</i>	
SOMATIK IFODALAR ORQALI BERILGAN PARALINGVISTIK VOSITALARNING	
QIYOSIY TADQIQI: "ANOR" HIKOYASI MISOLIDA .....	202-206

*Abulova Zilola Azimovna*

- INGLIZ AFORIZMLARINING TARKIBIDA BIR JUMLA HAMDA QO'SHMA GAPLAR BILAN  
IFODALANGAN AFORIZMLAR XUSUSIYATLARI ..... 207-201

*Qurbanova Dilnoza Olimovna*

- TYPES AND FUNCTIONS OF ADVERTISEMENT IN ENGLISH AND UZBEK ..... 210-216

*Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi*

- ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI ..... 217-221

*Babajanova Aziza Rustamovna*

- ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA BAHOR MAVZUSINING BADIY TALQINI ..... 222-227

*Khursanova Laylo Bakhtiyarovna*

- REPRESENTATION OF THE CONCEPT OF "PATIENCE" IN SPECIAL ENGLISH  
DICTIONARIES ..... 228-232

*Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi*

- O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO'Z TURKUMI TADQIQI ..... 233-238

*Samadova Visola Baxtiyor qizi*

- INGLIZ, O'ZBEK VA RUS TILLARIDA ANTONIM KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 239-242

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

*Tўlaganova Gulchexra Zakhitovna, Goфurova Dilafruz Murod қизи*

- АЭЛЛАР ТОМОНИДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИ  
РЕЖАЛАШТИРИШ, ЮЗАГА КЕЛАДИГАН ТЕРГОВ ВАЗИЯТЛАРИ ВА ВЕРСИЯЛАРНИ  
ИЛГАРИ СУРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 243-252

*Tosheva Maftuna Anvar qizi*

- INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALALARINING TRANSPLANTATSIYASI BILAN  
BOG'LIQ JINOYATLAR ..... 253-262

*Ikramov Sherzod Raximjanovich*

- VOYAGA YETMAGAN SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLASHNING O'ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI ..... 263-266

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Tohirova Mohigul Umir qizi*

- KO'RISHDA NUQSONI BOR SHAXSLARNING IJTIMOIY UMIDSIZLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK  
O'RGANISH. (L.I.VASSERMANNING "IJTIMOIY FRUSTRATSIIA (UMIDSIZLIK) DARAJASINI  
DIAGNOSTIKA QILISH METODOLOGIYASI" ASOSIDA) ..... 267-274

*Nasriddinov Dadaxon Komiljonovich*

- OLIY HARBIY TA'LIMDA FIZIKA O'QITISH SAMARADORLIGINI MOBIL ILOVALAR VA  
ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN OLIB  
BORILGAN PEDAGOGIK TAJRIBASINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI ..... 275-281

*Xojaniyazova Inkar Jumanazarovna*

- BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH  
IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH MASALALARI ..... 282-292

*Ashurova Marhabo Sayfulloyevna*

- BUXORO JADIDLARI VA YANGI USUL MAKTABLARIDA O'QITISH IMKONIYATLARI .... 293-301

<i>Алимова Нигора Исраиловна</i>	
ОСОБЕННОСТИ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА В ОБРАЗОВАНИИ И ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ, НАХОДЯЩИХСЯ НА ДЛИТЕЛЬНОМ ЛЕЧЕНИИ .....	302-308
<i>Mamajonova Gulnoza Karimovna</i>	
IJTIMOIY FANLARNI TEXNIKA YO'NALISHI TALABALARIGA O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI .....	309-313
<i>Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi</i>	
GRAMMATIK MINIMUM VA UNI O'QITISH METODLARI .....	314-319
<i>Norboyev Zafar Abdumuminovich</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA CEFR ME'ZONLARI ASOSIDA YANGI AVLOD DARSLIKLARINI YARATISH TEKNOLOGIYALARI .....	320-323
<i>Axmedova Zuxraxon Tulyanbayevna</i>	
QO'L TO'PI O'YININING JISMONIY JIHATDAN O'QUVCHILARNING O'QISHNI TUSHUNISHLARIGA TA'SIRI .....	324-329
<i>Юсупова Заррина Курбоновна</i>	
УНИКАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ И ВЫЗОВЫ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ .....	330-334
<i>Ravshanova Xafiza Komilovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI .....	335-340
<i>Nurbayeva Xolniso Uralovna</i>	
GENDER STREOTIPLAR GENDER MADANIYATNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA .....	341-345
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIZIMLI FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MUHIM PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	346-351
<i>Mustayeva Guliston Bo'ribo耶evna</i>	
TIBBIY TA'LIMDA AKS ETTIRISH AMALIYOTINING AHAMIYATI: UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA KO'MAKLASHISH .....	348-356
<i>Ahmedbekova Maxpuzaxon</i>	
TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK VA INNOVATSION JIHATLARI .....	357-362
<i>Utkirov Abbos Meyliyevich</i>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IMPACT ON HIGHER EDUCATION QUALITY AND EFFICIENCY .....	363-388
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARIDA MATEMATIKA FANI ORQALI TANQIDIY-TAHLILIY HAMDA MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI .....	389-393
<i>Maxliyo Qalandarova</i>	
UMUMTA'LIM MAKTABALARIDA MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCILARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI.....	394-399

**Received:** 30 August 2024

**Accepted:** 5 September 2024

**Published:** 15 September 2024

*Article / Original Paper*

## **THE INDIVIDUALITY OF THE GRANDMOTHER'S IMAGE IN THE CREATION OF ASKAR MAKHAM**

**Kuljanova Tulganoy Shodiyar kizi**

Samarkand State University, 1st year foundation doctoral student

[valiyevsaidahmad6@gmail.com](mailto:valiyevsaidahmad6@gmail.com)

**Abstract.** In this article, Askar Mahkam's poetry is analyzed. The artist's skill in revealing the image of the grandmother, the interpretation of enlightened-mystical ideas in harmony with the classical traditions in contemporary poetry are highlighted. Brief comments about traditionalism and new views of the poet's poetry are given.

Key words: Grandmother, Motherland, religion, zikr, mother, enlightenment, mysticism.

## **ASQAR MAHKAM IJODIDA BUVI OBRAZINING O'ZIGA XOSLIGI**

**Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi**

Samarqand davlat universiteti, 1-kurs tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Asqar Mahkam she'riyati poetik tahlilga tortilgan. Buvi obrazini ochib berishda ijodkor mahorati, hozirgi zamon she'riyatida mumtoz an'analarga hamohang ma'rifiy- tasavvufiy g'oyalar talqini yoritilgan. Shoир she'riyatiga xos an'anaviylik va yangicha qarashlar haqida qisqacha mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Buvi, Vatan, tariqat, zikr, ona , ma'rifat, tasavvuf.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I9Y2024N30>

Hozirgi zamon she'riyati mavzu va tasvir ko'lamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Har bir ijodkor mavjud adabiy tamoyillarga asoslangan holda o'z so'zini aytadi, o'z qarashlarini ifodalaydi. Har bir shoир o'ziga xos tasvirlash uslubi va so'z qo'llash mahoratiga ega. Adabiy jarayonda uslublar, yo'llar turli xil, lekin adabiyotning maqsadi bitta – inson qalbini taftish qilish, tarbiyalash. Ijod ahli barcha davrlarda shaxs sifatida o'z qarashlarini, inson sifatida o'z ruhiyatini so'z orqali bayon etib kelgan. Ijodkor lirk qahramon qalbini taftish qilar ekan uning botiniy olamini tasvirlashda shakl va mavzu yangilanishlari bilan bir qatorda an'anaviy motivlarga murojaat qiladi. O'zbek zamonaviy she'riyatining poydevorini mumtozona ruh tashkil qiladi. Bu islomiy ruhiyat negizida ma'rifat g'oyasi yotadi. Bu g'oyalar ma'lum bir davrga xos birlik sifatida emas, turli davrlarda turli tafakkurlarda turlichal talqinlarda yoritilib, yangilanib boruvchi mayoq kabidir. Hozirgi zamon she'riyatida an'ana va novatorlik masalasini shoир Asqar Mahkam ijodi misolida tahlil qilishni maqsad qildik.

Asqar Mahkam ijodi va shaxsiyatini yaqindan tanigan ko'pgina adabiyotshunoslar uni "Qattiq iymon shoiri", "Osmonga talpingan shoир" kabi o'ziga mos ta'riflar bilan esga oladi. Asqar

Mahkam she'riyatiga oshno kitobxon uni o'zligini izlab yo'lga otlangan musofir sifatida tasavvur qiladi. Shoирning ishqqa to'la qalbi, uyg'oq ruhiyatining sadolari ikki qutb orasida yashayotgan odamlarni bir zum xushyorlikka chorlaydi. Zohirot va botinot haqida tafakkur qilishga undaydi.

Adabiyotshunos olim Shavkat Hasanov: "Bir xil shoirlar ilk she'r laridanoq yara otib ko'zga tashlanadi. Asqar Mahkam bunday emas.", - deya e'tirof etadi. Haqiqatdan shoir mansab-u unvonlarga, muxlislar-u chapaklarga uchmadi. Bir she'rida bularni "temir hashamat" deya malomat qildi. Mashhurlik pillopovalarida emas, haqni istab yo'lga otlanganlar izidan yurishni afzal bildi.

Har qanday ijod ahli o'z tafakkur chegaralarigacha bo'lgan maydonda ot sura oladi. Albatta bu jarayonda shoir shaxsiyati ham ahamiyatlidir. Biror shoir ijodini tahlil qilishga bel bog'lagan kitobxon albatta ijodkor bosib o'tgan hayot yo'li haqida ma'lum bir tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Haqiqiy shoir birovdan eshitganini emas, o'zi anglab ulgurgan haqiqatlarni yozishi lozim. Xurshid Davron ijodkor shaxsiyati haqida to'xtalib shunday deydi: "...Uning she'r larida aks etgan alamli ohang va qora rang shoирning fojiali, og'ir kechgan bolaligining ta'sirida namoyon bo'ladi...Asqar umrining oxirigacha fojiali bolaligi ta'qibidan qutula olmadi. U eng shodon lahzalarni tasvirlaganda ham o'sha qora kunlarni eslamsdan o'tolmasdi..." [2;10-b.]

Ona haqida kuylamagan ijodkor ahli bo'lmasa kerak. Asqar Mahkam ham ona timsolida buvisini ko'rdi. Chunki shoir uch yoshida buvisi qo'lida qoladi. Shu boisdan Asqar Mahkam vatan ta'rifida Kofirnihonni, ona obrazida esa mehribon buvisini tasavvur qildi va qalbidagi samimi muhabbatini shu ikki obrazga qaratdi.

Shoирning "Qora ro'mol" nomli she'riy to'plami qaysidir ma'noda shoирning buvisiga bag'ishlab yozilgan dil izhorlaridir. Ijodkor buvisi haqida so'zlarkan, sirlari-yu dardlarini to'kib socha oluvchi go'shasi- Kofirnihon xotiralarini esga oladi. Ijodkor bu xotiralarini butun umr unutmadi. Zohiriy mehridan tortib botiniy olamining tub-tubigacha bolalik xotiralarini qora bo'yoqlarda so'zga ko'chirdi. Bir she'rida buvisi haqida eslab shunday deydi:

O'zi yer chopardi, o'zi ekardi,  
nevara tashvishi, besh mahal namoz.  
G'am oshib ketganda nos ham chekardi.  
Qo'shnilar goh yarash, gohida aroz.[1;19-b.]

Ushbu she'rda shoir shaxsiyatiga oid voqelik tasviri berilgan bo'lib, bu o'rinda ijodkorning ona siymosiga xos qarashlari to'rt nafar yetim nevaralarini boqish uchun o'zini fido qilgan bir mushtipar ona- buvi obrazi orqali ifodalanmoqda. Jumlada buvi hayot tashvishlaridan toliqqan, g'am yukidan qaddi bukilgan, lekin iyemoni tirik inson sifatida tasvirlanadi. Shu sababli shoir ko'p o'rinnarda buvisini avliyo darajasiga ko'taradi.

Hozirgi zamon she'riyatiga xos xususiyatlardan biri shakliy rang-barangliklar asosida mohiyatni aks ettirishdan iborat. Badiiy asar shakli ijodkorning o'ziga xosligini, kitobxonga ta'sir etish darajasini, janriy xususiyatini belgilab beradi. "Buvimga maktub" she'ri ham zamonaviy she'riyatga xos erkin vaznida yozilgan bo'lib, yengil o'qiladi. G'arb adabiyotiga xos tasvirlash usulidan foydalangan. Shoir dastlab buvisidan hol-ahvolini so'raydi.

Buviginam,  
bormisan omon?  
Omonmisan

namchil tonglarda?  
 Oyoqlaring og'rirmi hamon  
 Mo'risimon nomozshomlarda?[1;20-b.]

Keyingi misralarda buvisiga murojaat asnosida tug'ilib-o'sgan go'shasiga bo'lgan muhabbatini ham tasvirlab boradi. Shoir hayolida shovqin to'la hayotdan olis qishlog'inining tuniga sayr qiladi. Itlar akillagan, salqin ko'chalari-yu, osmon to'la yulduzlar, loysuvoq tomli uylarni she'rga ko'chiradi.

Itlar uzoq-uzoq akillar  
 dalalarning  
 namxush bag'rida  
 yulduzlarning nuri charsillar  
 loysuvoq tom somonlarida [1;20-b.]

Odatda shoirlar onani tilga olarkan, bor iqtidorini namoyon etishga harakat qiladi. Asqar Mahkam ham butun mahoratini buvisi va vatanini kuylash uchun sarfladi. Buvisidan so'z ocharkan, Kofirnihon albatta bor. E'tiborlisi, shoirning Vatan va onaga bo'lgan muhabbatini bir va bu keyingi avlodlar uchun haq ibratdir.

Bu haqida shoir "Nasiba" she'rida o'z tilidan bayon qiladi:  
 Men bilaman, nimadir Vatan,  
 Vatan!... mening tanam bag'rida  
 yashayotir bir kampir-dardmand...[1;30-b]  
 Yana bir o'rinda  
 Men bilaman, nimadir vatan,  
 u o'xshaydi sening sochingga...[1;31-b.]

Shoir buvisi va u yashaydigan go'shani bir butunlik deb tasavvur qiladi. She'r so'ngida buvisini kuyib-kuyib ado bo'lgan oyga ramzlaydi.

Yana bir she'rida shoir buvisi bilan Vatan haqida suhbat quradi. An'anaviy tasvir orqali inson ichki ruhiyatiga ta'sir o'tkazadi. Bu diologik suhbatda shoir buvisiga va buvisi orqali yerga, suvgaga tog'ga murojaat qiladi. Ulardan "Vatan nima?" deya so'raydi.

Bibi ena, Vatan nima?  
 Vatan nima, enajon?  
 Yerdan so'ra, yer aytadi,  
 Men ne bilam, bolam-a,...  
 ...Yerga aytdim, Yerim dedim  
 Vatan nedur, javob ber,  
 Yerim dedi Bibi kampir,  
 Bibi kampir, Vatandir...[1;40-b.]

Shoir vatanini xuddi buvisi kabi sevdi. Qalbidagi eng pok tuyg'ularini faqatgina buvisiga-vataniga ayta oldi. Ulardan olisda yashash bu muhabbatga zarracha zarar bermadi.

She'riyatida ma'rifiy- tasavvufiy qarashlar yetakchi bo'lgan shoir tasavvufiy tushunchalarni mumtoz an'analarga tayangan holda qo'lladi va shu o'rinda o'z badiiy tafakkuri orqali yangicha ruh bera oldi. Ijodkorning "Duo" she'rida uning buvisi-oddiy qishloq kampiri-mushtipar onaning subhidamgacha qilgan duolari haqida.

Xudoyimning g'arib go'shalarida  
 Terak yafrog'ida sirg'alar nurlar

Asta titroq turar daraxt jismida  
 So'ngra shamollarga bag'rini berib  
 Beshik kabi qalqar subhidamgacha [1;416-b.]

Shoir buvisining keksaygan jismini anchagina umrini yashab qo'yan daraxtga o'xshatmoqda. Buvining Allohg'a iltijo qilayotgan holatini daraxtning shamol og'ushida sarxush tebranishiga o'xshatmoqda. Onaning duosi faqat farzandi uchun bo'ladi va bu mustajobdir. Xuddi Allohnинг xos qullari- valiylar duosi kabi. Bu yerda shoir g'arib go'sha [xilvat], terak yafrug'ida sirg'alayotgan nur [tun] kabi tasviriyl ifodalardan foydalangan. Buvining ibodat chog'idagi harakatlarini beshikning qalqishiga o'xshatmoqda. Keyingi misralarda ona duosining makon va vaqt tanlamasligi, farzandi qayerda bo'lsa ham unga ruhan madad bo'lishiga urg'u berilgan.

Olis-olislarda shoir bolangning  
 Boshlaridan kechgan savdoni haydab  
 Duo qilganingda yig'i aralash  
 Ruhlar kirib kelar og'och eshikdan [1;416-b.]

Shoir ona duosining kuchi, darajasi haqida so'zlarkan, uni o'tkirlig-u keskirlikda tanho davlat-u qudratga o'xshatadi:

Bilaman bu duo toshlarni teshar  
 Bilaman bu duo keskir qilichdan...  
 Sening davlating shu  
 Qudrating ham shu...[1;417-b.]

Ijodkor qalbida yastanib yotgan armonlarini dardli og'riqlarini so'z orqali ifodalashga harakat qiladi. Buvisi oldidagi ado etilishi kerak bo'lgan farzandlik burchini to'kis qilolmaganligidan afsus nadomat chekadi.

Sendan olislarda  
 diydoringga zor  
 xoki poying bo'lib yashay olmagan  
 bemuruvvat bolang  
 beqadr bolang  
 umrin qog'ozlarga aylagan qurban... [1;419-b.]

deya o'zining shoirlik qismati yozilgan taqdiridan so'zlaydi. She'r so'ngida shoir buvisidan rozilik so'raydi buvisiga musofirim, dunyoligim, oxiratim deya tashbehli murojaat qiladi.

Shoirning "Dovdir shamol ohlar- sig'indi" nomli she'rida ham so'fiyona qarashlar ifodalangan. She'rning g'oyasi "Zikr qilar- tun, tuproq, buvim" misralari orqali oydinlashadi. Shoir o'ziga xos tasvir orqali buvisining shaxsiyatini so'zlab o'tadi. Misrada zikr kalimasi shoirning tasavvufiy qarashlarini ifodalab keladi.

Zikr - Allohn'i esga olish bo'lib, tasavvuf ahli buni Qur'oni Karimning "Allohn'i zikr qilish bilan qalblar orom olur" [13;28]oyati bilan bog'laydilar Aytishlaricha, butun borliq Allohn'i zikri bilan mavjud. Shoir bu o'rinda shunga ishora qilmoqda va buvisini ham mudom zikr qiluvchilardan deya e'tirof etmoqda.

Xulosa qilib aytganda Asqar Mahkam she'riyatida buvi asosiy obrazga aylangan. Buni quyidagi jihatlarda kuzatish mumkin:

Birinchidan, shoir buvisini tasvirlash asnosida olis bolaligi va qishlog'ini esga oladi, kitobxonni o'z ahvoldan, shaxsiyatidan xabardor qilib boradi;

Ikkinchidan, Ona siyosida buvi obrazini ko'rdi va adabiyotda o'ziga xos burulish yasadi;

Uchinchidan, "Buvi -Vatan" birliklariga bir xil vazifa yukladi, turli ramziy tasvirlar va o'xshatishlar orqali bir ma'noda qo'lladi;

To'rtinchidan, shoir an'anaviy izdoshlik orqali ma'rifiy- tasavvufiy g'oyalarga murojaat qildi. U tariqatda komillikka erishgan valiylarga xos jihatlarni buvisida topdi. Uni valiya sifatida e'tirof etdi.

Beshinchidan, shoir ijodida an'anaviy izdoshlik va o'ziga xos novatorlik jihatlari buvi obrazi orqali tahlilga tortildi.

Qisqacha aytganda, Asqar Mahkam o'zi uchun emas, o'zligi uchun ijod qilgan shoirlardandir. U kuylagan so'z insonlarni yaxshilikka undovchi, haqiqatga yetaklovchi bir ohang kabi yangraydi va bu ohang adabiyotda ham o'z notasiga ega bo'ladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. A. Mahkam. Haq.-Dushanbe.: "Adib", 1998, 551-b.
2. A. Mahkam. Vahdat kuyi.-Toshkent.: "Nurafshon business", 2021, 366-b.
3. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari.-Toshkent, 2010
4. Usmonov I., Olimov S. va boshqalar. Tasavvuf atamalari,-Toshkent.: Movaraunnahr, 2015, 360-b.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. -Toshkent.: "Islom universiteti nashriyot-matbaa uyi",2014, 617-b.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 9 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).